

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCES.UZ

DAVRIYLIGI: 2018-2023

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DUNYO TARIXIDA KOSMOSGA
UCHGAN BIRINCHI INSON




Дарин Тарафлари

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORVIJ OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

 +998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

 WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



OKTYABR
№57

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
25-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-25**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-25**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 57-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Qoriyev Mirzoxid Rustamjonovich
O‘ZBEKISTONDA LALMI YERLARNI HUDUDIIY TARQALISHI VA ULARNI
AGROIQLIMIY RAYONLASHTIRISH MASALALARI..... 7



ГЕОГРАФИЯ

О‘ЗБЕКИСТОНДА LALMI YERLARNI HUDUDIIY TARQALISHI VA ULARNI AGROIQLIMIIY RAYONLASHTIRISH MASALALARI

Qoriyev Mirzoxid Rustamjonovich

Erkin izlanuvchi, Namangan davlat universiteti, Namangan

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi mavjud lalmi yerlarni hududiy tarqalishi, mamlakatimizda lalmikor dehqonchilikni qisqacha rivojlanish tarixi va lalmi yerlarni agroiqlimiy rayonlashtirish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: lalmi yerlar, lalmikor dehqonchilik, agroiqlimiy resurslar, agroiqlimiy rayonlashtirish

Jahon aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlashda sug‘oriladigan va lalmi yerlarning ahamiyati juda katta. Ayniqsa, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida sug‘orilmaydigan, faqat tabiiy namgarchilik hisobiga lalmikor dehqonchilik ishlari olib borilmoqda va ularning maydoni sug‘oriladigan yerlarga nisbatan qariyb 4 barobar kattadir. Ya‘ni, jami sug‘oriladigan yerlar 301 mln gektarni, lalmi yerlar esa 1 mlrd 226 mln gektarni tashkil etadi [3].

Respublikaning lalmikor dehqonchilik tarixiga qisqacha nazar tashlaydigan bo‘lsak, so‘nggi 50-60 yil mobaynida lalmi maydonlardan foydalanish tizimida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, 1913 yilda lalmi maydonlar 365 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 1935 yilga kelib bu maydonlar qariyb 1 mln gektarni, 1943 yilga kelib 1 mln 465 ming gektarni tashkil etdi [1].

Ma‘lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda keyingi 50 yil ichida lalmi yerlar maydoni 630,9 ming gektarga, ya‘ni 44,6 foizga (1970 yildagi 1 mln 415,5 ming gektardan 2019 yilda 784,6 ming gektarga) qisqargan. Lalmi yerlarni qisqarishiga nafaqat tabiiy namlikni qisqarishi, balki, ularni sun‘iy sug‘orish va o‘zlashtirishga tortish, shuningdek, qisman lalmi bo‘z yerlarni yaylovlarga o‘tkazilishi bilan izohlanadi [2]. Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekistonda keyingi 50 yil ichida (1970-2019 yy) lalmi ekin maydonlarining o‘zgarish dinamikasi ko‘rsatilgan.

Ma‘lumotiga ko‘ra, geografik kenglik va vertikal mintaqalar ta‘siri natijasida havodagi namlik hamda harorat rejimida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar munosabati bilan O‘zbekiston hududi iqlimiy jihatidan quyidagi mintaqalarga ajratiladi: ekstraarid, arid, gumid, subnival mintaqalar. Ekstraarid iqlimli mintaqacha cho‘l tekisliklariga xos bo‘lib, yog‘ingarchilik miqdori kam bo‘ladi, sun‘iy sug‘orish bilan dehqonchilik qilinadi. Arid iqlimli mintaqaga qir-adirlik va tog‘oldi tekisliklari kiradi va bu yerda lalmikor dehqonchilikning asosiy qismi olib boriladi. Bu mintaqada o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 200-500 mm ni tashkil qiladi. Gumid iqlimli mintaqaga qo‘ng‘ir tuproqli o‘rta va yuqori tog‘ mintaqalari kiradi. Subnival iqlimli mintaqacha esa tog‘ tizmalarining yuqori qismlarini tashkil etadi.

1-jadval

O‘zbekistonda 1970-2019 yillarda lalmi ekin maydonlarining o‘zgarish dinamikasi [3].

№	Yillar	Maydoni, ming ga	1970 yilga nisbatan kamayishi
1.	1970	1415,5	-
2.	1980	932,6	- 482,9
3.	1985	834,4	-581,1
4.	1990	794,2	-621,3
5.	1995	780,4	-635,1
6.	2000	776,6	-638,9
7.	2010	789,3	-626,2
8.	2019	784,6	-630,9



O‘zbekistonda yog‘ingarchilik miqdori mintaqalar bo‘yicha dengiz sathidan balandlikka ko‘tarilish tartibida ko‘payib boradi. Tekisliklarda 70–200 mm yog‘in tushsa, bu miqdor qiradirlar va tog‘oldi mintaqalarda 300–400 mm, tog‘larda esa 400–700 mm va undan ortiq bo‘lishi mumkin. O‘rtacha havo harorati ham mintaqalar bo‘yicha yuqoriga ko‘tarilishi bilan sovub boradi. Haroratning vertikal gradientlari har xil sharoitda turlicha bo‘ladi: qishda ular har 100 m balandlikka o‘zgarganda 0,3–0,5°C, yozda esa 0,7–0,8 °C gacha pasayadi. Respublika hududidagi lalmikor yerlar o‘zining tuproq va agroiklim sharoitlari, dengiz sathidan balandlikda joylashganligiga qarab 4 ta mintaqadan iborat (2-jadval):

2-jadval

**O‘zbekiston lalmikor maydonlari mintaqalari
(G.A.Lavronov ma’lumoti bo‘yicha)**

Mintaqalar	Dengiz sathidan balandligi, m	Yillik yog‘in miqdori, mm	O‘rtacha harorat, °C	Qorli kunlar, kun
Tekislik.(nam bilan kam ta’minlangan)	200-350	250-280	+13,4 +14,2	21-26
Qir-adirlarlik (nam bilan yarim ta’minlangan)	350-450	280-350	+11,6 +13,0	28-37
Tog‘oldi (nam bilan ta’minlangan)	600-900	350-450	+12,0 +12,9	39-48
Tog‘li (nam bilan to‘liq ta’minlangan)	900-2000	450 va undan ko‘p	+10,1 +11,8	55-65

Tekislik (nam bilan kam ta’minlangan). Territoriyaning dengiz sathidan balandligi 200-350 m bo‘lib, tuprog‘i och tusli bo‘z tuproq, yillik yog‘in miqdori 250-280 mm. O‘rtacha yillik havo harorati +13,4 +14,2 °C ni tashkil qiladi. Bu mintaqada boshqoqli don ekinlaridan asosan arpa ekilib, bug‘doy katta maydonlarda yetishtirilmaydi. Tuproq-iqlim sharoiti tekislik, nam bilan ta’minlanmagan eng noqulay mintaqaga hisoblanadi. Boshqoqli va boshqa ekinlar garmsel bilan tez-tez zararlanib turadi, tuproq-havo qurg‘oqchiligi hosildorlikka keskin salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qir-adirlarlik (nam bilan yarim ta’minlangan). Dengiz sathidan balandligi 350-450 m, tuprog‘i tipik bo‘z tuproq, yillik yog‘in miqdori 280-350 mm, o‘rtacha yillik havo harorati +11,6 +13,0 °C ni tashkil etadi. Bu mintaqaga O‘zbekiston lalmikor dehqonchiligining asosiy ekin maydonini o‘z ichiga oladi. Bu yerda boshqoqli, dukkakli don ekinlari, em-xashak, poliz, moyli va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtiriladi. Namgarchilik ko‘p bo‘lganda yillari bu ekinlardan yuqori hosil yetishtirish mumkin.

Tog‘oldi (nam bilan ta’minlangan). Dengiz sathidan 600-900 m balandlikda joylashgan, tuprog‘i to‘q tusli bo‘z tuproq, o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 350-450 mm, o‘rtacha yillik havo harorati +12,0 +12,9 °C. Bu mintaqaga lalmikorlikning eng ko‘p va ishonchli qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaradigan mintaqasi bo‘lib hisoblanadi. Bu yerda bug‘doy, arpa, poliz ekinlari, kungaboqar, dukkakli ekinlar yetishtiriladi. Katta maydonlarda beda ekilib, pichan va beda urug‘idan mo‘l hosil olinadi.

Tog‘li (nam bilan to‘liq ta’minlangan). Mintaqaga dengiz sathidan 900-2000 m balandlikda joylashgan, asosan tog‘ yon bag‘ridagi tekisliklar va tog‘lardagi kichik maydonlar, yaylovlardan iborat. Tuprog‘i kul rang karbonatli to‘q tusli, gumusga boy bo‘z tuproq bo‘lib, o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 450-750 mm va undan ko‘p, o‘rtacha yillik harorati esa +10,1 +11,8 °C ni tashkil etadi, bug‘doy, arpa, no‘xat, beda va boshqa ekinlardan yuqori hosil yetishtiriladi.

Tog‘oldi va tog‘li mintaqalar Markaziy Osiyoning, shu jumladan, O‘zbekistonning qadimgi asosiy lalmikor dehqonchilik mintaqalari hisoblanadi. Markaziy Osiyoning barcha respublikalaridagi tog‘oldi va tog‘li rayonlari yog‘insochin ko‘p yog‘ishi, havo harorati va nisbiy namligi qulayligi bilan boshqa mintaqalardan ajralib turadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allanov X.K., Charshanbyiev U.Yu., Mirzayev Sh.F., Aliev J.X. Lalmikor dehqonchilik. Toshkent, 2020. – B. 446.
2. Ro‘ziboev S. Lalmi yerlardan foydalanishni monitoring qilish //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 2. – B. 1340-1346.
3. www.fao.org – Glava 1. Sostoyanie i tendensii v sfere zemelnyx i vodnyx resursov. Istochnik: <https://www.fao.org/3/i1688r/i1688r03.pdf>

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 25-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000